

**ISLOMIY BANK MUASSASALARIDA TAVIZ VA G‘AROMA
TO‘LOVLARINING BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS
ETTIRILISHI**

F.I.SH: Raximova Onaxon Ozod qizi

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

PhD tayanch doktorant

Annotatsiya. Maqolada islomiy bank muassasalarida to‘lov muddatining asossiz buzilishi bilan bog‘liq ikki turdagi to‘lov - haqiqiy zararni qoplash to‘lovi (taviz) hamda intizomiy undiruv (g‘aroma) tahlil qilingan. Ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi maqomi hamda Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) talablari qiyoslanib, har bir to‘lovni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: taviz, g‘aroma, islomiy bank faoliyati, islomiy moliya standartlari, neustoyka, xayriya jamg‘armasi, buxgalteriya hisobi, oshkor qilish, islomiy moliya kengashi.

Islomiy bank amaliyotida to‘lov muddatining buzilishi bilan bog‘liq undiruvlar ikki mustaqil tushunchaga ajratiladi. Taviz - muassasaga yetkazilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy zararni qoplashga qaratilgan to‘lov. G‘aroma - shartnomada oldindan belgilangan, to‘lov intizomini ta‘minlash maqsadidagi undiruv bo‘lib, u zararni qoplash tabiatiga ega emas. Ushbu farq shakliy emas: u ikki to‘lovning buxgalteriya hisobidagi maqomini butunlay ajratib turadi, chunki birinchisi muassasaning sarflarini qoplaydi, ikkinchisi esa uning daromadi bo‘la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son Qonuni bilan islomiy bank faoliyatining huquqiy asoslari belgilanib, hujjat 2026-yil 29-iyunda kuchga kirdi. Milliy qonunchilikda esa mazkur ikki tushuncha alohida atalmaydi va ular neustoyka hamda zararlarni qoplash me'yorlari orqali ifodalanadi. Shu bois ularni hisobda to'g'ri aks ettirish uchun milliy me'yorlar bilan islomiy moliya standartlari talablarini o'zaro bog'lash zarur.

Ikki to'lovni quyidagi mezonlar bo'yicha ajratish maqsadga muvofiq:

–taviz - ko'rilgan zararni qoplash, g'aroma - majburiyatni bajarishga undash;

–taviz uchun tasdiqlovchi hujjatlar va hisob-kitob talab etiladi, g'aroma esa shartnoma bandiga asoslanadi;

–taviz haqiqiy sarflar doirasida cheklanadi va unga boy berilgan foyda kiritilmaydi, g'aroma esa oldindan belgilangan qat'iy summa yoxud foizda hisoblanadi;

–har ikkalasi ham qarzdorning to'lovga qodir bo'la turib majburiyatni asossiz kechiktirganda qo'llaniladi;

–taviz muassasa sarflarining qoplanishi sifatida, g'aroma esa xayriya maqsadlariga yo'naltiriladigan maqsadli majburiyat sifatida aks ettiriladi.

Moliyaviy qiyinchilikka tushgan qarzdorga nisbatan ikkala undiruv ham qo'llanilmaydi; bunday holatda muhlat berish, to'lovlarni qayta taqsimlash yoki shartnomani qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb topiladi. Kechikish sabablarini baholash tartibi bankning ichki hujjatlarida belgilanishi lozim.

Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga ko'ra huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararlarning o'zni qoplanishini talab qilishga haqli; zararlar tarkibiga haqiqiy zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda ham kiradi. Taviz

aynan shu me'yorning birinchi qismiga - hujjatlashtirilgan haqiqiy sarflarga taqaladi, boy berilgan foyda esa unga kiritilmaydi.

Kodeksning 260-moddasida neustoyka tushunchasi berilgan bo'lib, u majburiyat bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda to'lanishi shart bo'lgan pul summasidir. 261-moddaga ko'ra neustoyka jarima yoxud penya shaklida bo'ladi, 262-moddaga binoan bu haqidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi, 263-moddada esa qonuniy neustoyka nazarda tutilgan. Kodeksda neustoyka bilan qoplanmagan zarar qismini undirish hamda neustoyka miqdori majburiyat buzilishi oqibatlariga nomutanosib bo'lganda sud tomonidan uni kamaytirish imkoniyati ham belgilangan. Milliy amaliyotda g'aroma aynan neustoyka shaklida rasmiylashtiriladi, biroq uning tushumi bank daromadi sifatida tan olinmaydi.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi: 5-moddada moliyalashtirish tamoyillari qatorida “foizlilik” so'zi “to'lovlilik” so'zi bilan almashtirilgan, 62-moddada bank daromadi sifatida faqat ustama va foydadan olinadigan ulush ko'rsatilgan. Qonunning 20-1-moddasi islomiy moliya operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini alohida yuritishni talab etadi, 35-1-moddasi bank islomiy moliya kengashiga shartnoma va ichki hujjatlarni ma'qullash hamda xulosalar berish vakolatini yuklaydi, 74-moddaning oltinchi qismi esa yiliga kamida bir marta islomiy moliya bo'yicha tashqi audit tekshiruvini nazarda tutadi. Markaziy bank to'g'risidagi Qonunning 67-4-moddasiga muvofiq Markaziy bankning islomiy moliya kengashi standartlarni ishlab chiqadi va bahsli masalalar bo'yicha xulosalar beradi. Soliq kodeksining 71-2-bobi (480-3 - 480-6-moddalar) islomiy moliya operatsiyalariga soliq solish xususiyatlarini belgilaydi, biroq g'aroma tushumini soliq bazasidan chiqarish masalasi alohida tartibga solinmagan.

Tashkilot hujjatlarida masala quyidagicha tartibga solingan:

– islomiy moliya standarti (3-son) - kechiktirish evaziga muassasa foydasiga moliyaviy qoplash belgilash mumkin emas; shartnomada qarzdorning kechiktirgan taqdirda muayyan summani xayriyaga yo‘naltirish majburiyati nazarda tutilishi va bu summa muassasa daromadiga kiritilmasligi lozim; qarzni undirish bilan bog‘liq haqiqiy sarflar qoplanishi mumkin, boy berilgan foyda esa qoplanmaydi;

– nasiyaga savdo bo‘yicha standart (8-son) - kechiktirish sababli qarz qoldig‘ini yoki ustamani oshirish taqiqlanadi;

– moliyaviy buxgalteriya hisobi standarti (1-son) - xayriya jamg‘armasi manbalari va sarflari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etish, talablarga muvofiq bo‘lmagan manbadan olingan tushumlarni izohlarda oshkor qilish;

– moliyaviy buxgalteriya hisobi standarti (30-son) - muddati o‘tgan moliyalashtirish bo‘yicha qadrsizlanish va zaxiralarni baholash;

– boshqaruv va audit standartlari - ichki muvofiqlik tekshiruvi hamda tashqi auditor tomonidan mazkur summalarning ajratilishi va maqsadli sarflanishini tekshirish.

Xalqaro amaliyotda tavizni belgilangan chegara doirasida muassasa daromadi sifatida tan olishga yo‘l qo‘yadigan yondashuv ham uchraydi. AAOIFI hujjatlari esa qat‘iyroq mezon qo‘yadi: qoplanadigan summa faqat isbotlangan haqiqiy sarflar bilan cheklanadi, undan ortiqcha qismi xayriyaga yo‘naltiriladi. Markaziy bank huzurida 2026-yil iyul oyida tashkil etilgan islomiy moliya kengashi milliy standartlarni aynan shu hujjatlar asosida ishlab chiqmoqda.

Hisoblangan, biroq undirilmagan summalar daromad yoki majburiyat sifatida balansda aks ettirilmaydi - ular balansdan tashqari hisobda talab sifatida qayd etiladi. Chunki bunday summalarning olinishi ehtimoli noaniq bo‘ladi.

Taviz undirilganda u muassasaning oldindan qayd etilgan haqiqiy sarflarini qoplash sifatida aks ettiriladi: pul mablag‘lari hisobvarog‘i debetlanadi, tegishli xarajat yoki qoplanadigan sarflar hisobvarog‘i kreditlanadi. Qoplanadigan summa hujjatlar bilan tasdiqlangan sarflar miqdoridan oshmasligi, oshib ketgan qismi esa xayriya majburiyatiga o‘tkazilishi lozim.

G‘aroma undirilganda pul mablag‘lari hisobvarog‘i debetlanadi va “xayriya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiyat” passiv hisobvarog‘i kreditlanadi. Bu yozuv mazkur tushumning bank foydasiga kirmasligini ta’minlaydi.

Kelib tushgan mablag‘ ichki nizomda belgilangan navbatda so‘ndiriladi: avval moliyalashtirishning asosiy summasi va ustama, so‘ngra taviz, oxirida g‘aroma. Har bir tarkibiy qism alohida analitik hisobvaraqa kuzatib boriladi. An’anaviy bank tarkibidagi bo‘linmada ushbu summalar bankning boshqa daromadlari bilan aralashtirilmaydi.

Xayriya majburiyati bank islomiy moliya kengashi ma’qullagan yo‘nalishlar bo‘yicha sarflanadi va sarflanganda majburiyat hisobvarog‘i debetlanadi. Mablag‘ bank, uning aksiyadorlari, rahbar xodimlari yoki ular bilan bog‘liq shaxslar foydasiga yo‘naltirilishi mumkin emas.

Hisobotda oshkor qilish. Yillik hisobotda taviz va g‘aroma summalari alohida ko‘rsatiladi, xayriya jamg‘armasining davr boshi va oxiridagi qoldiqlari, tushum manbalari hamda sarflanish yo‘nalishlari keltiriladi. Bu ma’lumot kengashning yillik xulosasi va tashqi audit natijalari bilan tasdiqlanadi.

Milliy qonunchilikda taviz va g‘aroma alohida tushuncha sifatida belgilanmagan, hisobvaraqlar rejasida ular uchun alohida hisobvaraqlar nazarda tutilmagan, haqiqiy zararni hisoblash uslubiyoti mavjud emas, soliq

qonunchiligida esa neustoyka summolari umumiy tartibda daromad deb qaraladi.

Shu munosabat bilan quyidagilar taklif etiladi: milliy islomiy moliya standartlarida taviz va g'aroma tushunchalarini hamda ularni qo'llash shartlarini belgilash; Markaziy bankning hisobvaraqlar rejasiga xayriya majburiyatini va qoplanadigan sarflarni hisobga oluvchi alohida hisobvaraqlar hamda balansdan tashqari hisobvaraqlar kiritish; haqiqiy zararni hisoblash va hujjatlashtirish uslubiyotini tasdiqlash; Soliq kodeksining 71-2-bobida g'aroma tushumi bank daromadi tarkibiga kiritilmasligini aniq belgilash; xayriya jamg'armasi hisoboti shaklini joriy etish; auditorlar uchun tekshiruv uslubiyotini ishlab chiqish va shartnomalarda mijozga ikki to'lovning farqini tushuntirib o'tish.

Taviz va g'aroma bir xil holatda - to'lov muddatining asossiz buzilishida qo'llanilsa-da, ularning iqtisodiy mazmuni va hisobdagi maqomi butunlay boshqacha. Taviz muassasaning isbotlangan sarflarini qoplaydi va uning foydasini oshirmaydi; g'aroma esa maqsadli majburiyat sifatida tan olinib, xayriya yo'nalishlariga sarflanadi. Milliy qonunchilik bunday yondashuv uchun zarur asosni yaratdi, endilikda hisobvaraqlar rejasi, hisobot shakllari va soliq me'yorlarini AAOIFI talablariga muvofiq to'ldirish zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 14, 260 - 263-moddalar.
2. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son Qonuni "O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-son Qonuni tahririda), 5, 20-1, 35-1, 62 va 74-moddalar.

4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 67-3 va 67-4-moddalar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, boshqa daromadlarga oid me‘yorlar hamda 71-2-bob (480-3 - 480-6-moddalar).
6. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son Qonuni tahririda).
7. Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) standartlari to‘plami. - Manama, Bahrayn.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlari, 2026-yil.